



**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI**

**Davlat tilini o'qitishning zamonaviy
konsepsiyasi, me'yoriy-huquqiy asoslari
hamda CEFR va Milliy o'quv dasturiga
muvofiqligi**



Nega bu mavzu muhim?

Davlat tilini zamonaviy talablar asosida o'qitish **ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan bir** hisoblanadi.

Bugungi kunda bu jarayon uchta asosga tayanadi: **Milliy o'quv dasturi, Davlat ta'lim standarti va CEFR tavsiyalari.**

Ushbu yondashuv o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa o'quv dasturlari va darsliklar tahlil qilinib, davlat tili kompetensiyalari CEFR deskriptorlari asosida baholanadi.



Milliy o'quv dasturi



Davlat ta'lim standarti



CEFR tavsiyalari

Ta'lim maqsadi

Ta'lim tizimida davlat tilini **xalqaro standartlar** asosida o'qitish, **Milliy o'quv dasturi va CEFR talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirish** — bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Davlat tili siyosati va uning ta'lim tizimidagi o'rni

Davlat tili siyosati — davlat tilining jamiyat hayotidagi mavqeini mustahkamlash, uni ta'lim, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda keng qo'llashga qaratilgan.

Amalga oshirish yo'nalishlari

- > Barcha ta'lim bosqichlarida davlat tilini o'qitish
- > Sifatli darslik va o'quv-metodik ta'minotni yaratish
- > Davlat tilida ish yuritish madaniyatini rivojlantirish
- > Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish
- > Jamiyatda til madaniyatini yuksaltirish



Davlat tilini o'qitishning me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

21-moddaga muvofiq, **O'zbekiston Respublikasining davlat tili – o'zbek tilidir.** Davlat uning rivojlanishi va amal qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi hamda mamlakat hududida yashovchi barcha millat va elatlar tillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlaydi.

“Davlat tili haqida”gi Qonun (21.10.1989)

1-moddaga muvofiq **davlat tili – o'zbek tili;**
davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga teng sharoit yaratiladi;
davlat organlari va ta'lim muassasalarida davlat tilidan foydalanish tartibi belgilanadi;
boshqa millatlar tillarining rivojlanishi ham kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni PF-6084

(20.10.2020) "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ Farmon bilan 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi



O'zbek tilining jamiyat va xalqaro maydondagi nufuzini oshirish.



Davlat tili ta'limini takomillashtirish va milliy qadriyatlarni singdirish.



Jamiyatda davlat tiliga hurmat va e'tibor muhitini shakllantirish.



Har bir fuqaroning davlat tilini bilishini ta'minlash.



Davlat tilining nufuzini yangi bosqichga ko'tarish.



Davlat tilining barcha sohalarda to'liq qo'llanilishini ta'minlash.

Milliy o'quv Dasturi nima?

Ta'lim tizimining asosiy hujjati

Milliy o'quv dasturi — davlat tomonidan tasdiqlangan, o'quvchilarga qaysi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar qaysi bosqichda berilishini belgilaydigan asosiy me'yoriy hujjatdir.

Maqsad:

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega, Vatanga sadoqatli, jismonan va ma'nan barkamol, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash;
- umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining hayoti davomida ta'lim olishga bo'lgan rag'batini rivojlantirish;
- o'quvchilarning akademik tayyorgarligini ta'minlash, kasbga yo'naltirish va ularni ta'limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash.

MILLIY O'QUV DASTURI

Dasturning tarkibiy qismlari

01

O'quv dasturi qamrovi

- Milliy o'quv dasturi asoslari;
- o'quv maqsadlari.

02

O'qituvchilar uchun yo'riqnoma

- darslarni rejalashtirish;
- o'qitish va o'rganish bo'yicha metodik yondashuvlar;
- ta'lim muhiti;
- baholash.


03

Ish reja

- o'quv dasturi doirasidagi o'quv maqsadlarini ketma-ketlikda o'rgatish bo'yicha tavsiyalar;
- o'quv maqsadlari uchun tavsiya etilgan o'quv faoliyati tavsifi;
- o'quvchilar uchun fanga oid atamalar ro'yxati;
- keng tarqalgan noto'g'ri tushunchalar tahlili;
- namunaviy dars ishlanmalari.

O'ZBEKISTONDA ISLOHOTLAR

O'zbek tili fani o'quv dasturi fanning mazmuniga oid quyidagi bo'limlarini qamrab oladi:



Milliy o'quv dasturida davlat tili kompetensiyalari

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan; asosiy e'tibor tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Sinflar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashib boradi.



Tinglab tushunish



**Gapirish (dialog /
monolog)**



O'qib tushunish



Yozma nutq



**Lingvistik
kompetensiya**



**Sotsiolingvistik va
pragmatik**

Ushbu kompetensiyalar o'quvchining kundalik, ijtimoiy va ta'limiy vaziyatlarda davlat tilidan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

Asosiy xalqaro baholash tizimlari

PISA

15 yoshli
o'quvchilarning
matematik, o'qish va
tabiiy-ilmiy
savodxonligini
baholaydi (OECD)

TIMSS

4- va 8-sinf
o'quvchilarining
matematika va tabiiy
fanlar bo'yicha
bilimini o'lchaydi


PIRLS

4-sinf o'quvchilarining
o'qish savodxonligi
darajasini baholaydi

CEFR

Chet tillarni bilish
darajasini A1 dan C2
gacha belgilaydigan
Yevropa tizimi

CEFR darajalari: A1 dan C2 gacha



Daraja qanchalik yuqori bo'lsa, til bo'yicha mustaqillik va murakkab vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

CEFR ning ta'lim tizimidagi ahamiyati

1

Yagona mezon

Til bilimini baholashda xalqaro tan olingan yagona standart yaratadi

2

Shaffoflik

O'quvchi, ish beruvchi va ta'lim muassasalari uchun tushunarli natijalar

3

Mobillik

Xalqaro almashinuv dasturlari va chet elda o'qish imkoniyatlarini kengaytiradi

4

Motivatsiya

O'quvchilarni aniq maqsad sari izchil rivojlanishga undaydi

CEFR – Common European Framework of Reference for Languages (Tillarga oid Yevropa Umumiy Malaka Ramkasi)

? CEFR NIMA?

CEFR tillarni o'qitish, o'rganish va baholash uchun xalqaro miqyosda qabul qilingan standart tizimdir. U til bilishni 6 ta darajaga bo'ladi va barcha ko'nikmalar bo'yicha aniq tavsiflaydi.



CEFR DARAJALARI



CEFR NIMA UCHUN KERAK?



- Til bilish darajasini aniqlash va solishtirish
- O'quv dasturlarini ishlab chiqish
- O'qitish va o'rganish jarayonini rejalashtirish
- Xalqaro sertifikatlar va imtihonlarda standart mezon sifatida xizmat qiladi

4 TA ASOSIY KO'NIKMA



Tinglab tushunish

Og'zaki nutqni tushunish va ma'lumotni anglab yetish.



O'qish

Yozma matnlarni tushunish va ma'lumotni talqin qilish.



Gapirish

O'z fikrini og'zaki ifodalash va muloqotda qatnashish.



Yozish

Yozma shaklda fikr bildirish va matn yaratish.

DARAJALAR BO'YICHA QISQACHA TAVSIF

A1	Tanishib iboralar va oddiy jumalarni tushunadi va ishlata oladi. O'zini, boshqalarni tanishtira oladi. Oddiy savol-javob qiladi.
A2	Kundalik vaziyatlarda zarur bo'lgan iboralar va tez-tez ishlatiladigan so'zlarni tushunadi. Ma'lum mavzularda oddiy suhbatlasha oladi.
B1	Asosiy fikrlarni anglaydi, sayohat, ish, maktab kabi mavzularda muloqot qila oladi. Oddiy matnlarni tushunadi va yozadi.
B2	Murakkab matnlarning asosiy va tafsilotlarini tushunadi. Fikrini ravon va aniq ifodalaydi, turli mavzularda bahs-munozara qila oladi.
C1	Uzoq va murakkab matnlarni tushunadi. O'zini ravon va moslashuvchan ifodalaydi. Professional va ijtimoiy mavzularda samarali muloqot qiladi.
C2	Tilni mukammal darajada tushunadi va ishlata oladi. Ma'no nozikliklarini anglaydi, har qanday mavzuda aniq va uslubiy jihatdan to'g'ri ifodalaydi.

CEFR DARAJALARINING BOSHQA TIZIMLAR BILAN MUVOFIQLIGI

CEFR	IELTS	TOEFL iBT	Cambridge Exams
A1	–	–	Starters
A2	3.0 – 3.5	20 – 30	Key (KET)
B1	4.0 – 5.0	31 – 45	Preliminary (PET)
B2	5.5 – 6.5	46 – 93	First (FCE)
C1	7.0 – 8.0	94 – 120	Advanced (CAE)
C2	8.5 – 9.0	121 – 130	Proficiency (CPE)

CEFR til darajalari (A1–C2)

Common European Framework of Reference for Languages — chet va ikkinchi tillarni oʻqitish hamda baholash uchun ishlab chiqilgan xalqaro tizim.

A1	Boshlangʻich	Oddiy, kundalik iboralarni tushunish va ishlatish
A2	Elementar	Sodda, tanish mavzularda qisqa muloqot qilish
B1	Oʻrta (pastki)	Tanish mavzularda mustaqil fikr bildirish
B2	Oʻrta (yuqori)	Murakkabroq matnlarni tushunish, erkin muloqot
C1	Yuqori	Til vositalaridan erkin va aniq foydalanish
C2	Mukammal	Ona tilida soʻzlashuvchi darajasida tilni bilish

Davlat tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv

*Ta'lim natijasi “nimani biladi” emas, balki “**nimani qila oladi**” tamoyili asosida baholanadi. O'qituvchi — bilim beruvchi emas, balki fasilitator rolini bajaradi.*

- O'quvchi bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltiriladi

- Tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari uyg'un rivojlantiriladi

- Fanlararo integratsiya va hayotiy tajribaga tayaniladi

- Hamkorlikda ishlash va muloqot madaniyati shakllantiriladi

- Interfaol, loyihaviy va muammoli topshiriqlardan foydalaniladi

- Baholash kompetensiyalar va kutilayotgan natijalar asosida amalga oshiriladi

- Mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkur rivojlantiriladi

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yaratiladi

O'quv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish

Maqsad: milliy o'quv dasturi va davlat tili darsliklarini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish, mazmunini CEFR talablari bilan taqqoslash.

1
Ishtirokchilar 3–5
kishilik kichik
guruhlarga
bo'linadi

>

2
Har bir guruhga
o'quv dasturi yoki
darslikdan mavzu
beriladi

>

3
Guruhlar mezonlar
asosida tahlil olib
boradi (maqsad,
kompetensiyalar,
ko'nikmalar,
kommunikativ
elementlar,
baholash)

>

4
Guruhlar
xulosalarini
jadval yoki
taqdimot
ko'rinishida
taqdim etadi

>

5
Yakunda umumiy
muhokama
o'tkaziladi

Kompetensiyalarni CEFR deskriptorlari asosida aniqlash

Maqsad: o'quv natijalarini CEFR deskriptorlari bilan bog'lash, til kompetensiyalarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

1

Ishtirokchilar
kichik
guruhlarga
bo'linadi

2

Har bir guruhga
o'quv mavzusi
yoki topshiriq
namunasi
beriladi

3

Rivojlanadigan
til ko'nikmalari
va CEFR
darajasi (A1,
A2, B1...)
aniqlanadi

4

Mos "Can do"
deskriptorlari
tanlanadi,
baholash
mezonlari
ishlab chiqiladi

5

Guruhlar
taqdim etadi;
trener yakuniy
xulosa va
tavsiyalar
beradi

Ginnes rekordlari

6-sinf

1. Tinglash



2. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna: 1-d, ...

1. Ginnesning rekordlar kitobi – jahondagi...
2. Ginnesning rekordlar kitobi 1954-yili Londonda...
3. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti...
4. Dunyodagi eng ko'p o'g'irlanadigan kitob...

- A) "Guinness Publishing" tomonidan har yili nashr etib kelinadi.
- B) aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan.
- C) rekordlar va g'aroyib narsalar haqida ma'lumotlar kiritilgan kitob.
- D) Ginnesning rekordlar kitobidir.

3. O'qing.

Dunyodagi eng ko'p mo'miq ayiqchalar kolleksiyasi (8025 dona) Janubiy Dakotada. Jeki Mayli ayiqlarni AQSHning barcha shtatlari va 29 ta chet mamlakatdan keltirgan.

Natan Savayya to'liq LEGO konstrukturi detallaridan qurgan "betmobil"i tufayli Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Prototip yaratilishiga 3 oy vaqt va 500 ming LEGO detali ketgan.

Dunyodagi eng yaxshi basketbolchi quyon sifatida 4 yoshli Bini tan olingan. U bir daqiqada yetti marotaba koptokni savatga tashlashi mumkin.

O'zbekistonda tayyorlangan dunyodagi eng ulkan – og'irligi 7360 kilogrammik palov Ginnes rekordlari ro'yxatidan joy olgan.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Dunyodagi g'aroyib rekordlar haqida eshitganmisiz?
2. Sinfdoshlaringiz orasida kimlar sinf rekordini o'rnatgan? (Misol uchun, kubik-rubik, mental arifmetika bo'yicha.)
3. Siz ham Ginnesning rekordlar kitobiga kirishni istarmidingiz? Qaysi sohada o'zingizni kuchli deb hisoblaysiz?
4. Yuqoridagi rekordlardan qaysi biri sizga yoqdi?
5. Tasavvur qiling, siz Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildingiz. Undan tushgan mablag'ni nimaga sarflagan bo'lardingiz?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi tikadi.*

bermoq

tikmoq

chop etmoq

o'rnatmoq

~~tikmoq~~

Mening opam – tikuvchi. U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi ____ . U ishxonasida tezkorligi bilan rekord ____ . Opam kuz mavsumida bir kunda 300 ta bosh kiyim ____ . Shuning uchun u haqida gazetada ham maqola ____ . Opam menga va do'stlarimga ham chiroyli bosh kiyimlar tikib ____ . Ular menga juda yoqadi.

1-amaliy mashg'ulot

O'quv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish

Mavzuning maqsadi va
kutilayotgan natija

Shakllantiriladigan kompetensiyalar
(tinglash,gapirish,o 'qish va yozish)

Kommunikativ yondoshuv
elementlari

Interfaol topshiriqlar va
baholash usullari

Muhokama uchun savollar

1. O'quv dasturida qaysi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi?
2. Darslik topshiriqlari kommunikativ yondashuv talablariga qanchalik mos?
3. Mavzuda o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?
4. Darslikni takomillashtirish bo'yicha qanday takliflar berish mumkin?

Jahon adabiyoti namoyandalari (Ko'chma ma'noli so'zlarning qo'llanishi)

Ingliz dramaturgi va shoiri Vilyam Shekspir o'z faoliyatini 1580-yildan teatr aktyori va dramaturgi sifatida boshlagan. Shoirning 1603-yildan keyingi aktyorlik faoliyati to'g'risida biror ma'lumot yo'q. Ammo u o'zining «Lord Kamerger xizmatkorlari» truppasi uchun pyesalar yozishda davom etgan. Bu truppa Yakov I ning taxtni egallaganidan keyin qirol truppasi deb atalgan. Shekspir taxminan 1612-yilda Stratfordga qaytib kelgan va shu yerda vafot etgan. Uning aktyorlik faoliyati taxminan 15 yil davom etgan. U Uyg'onish davri madaniyati bilan uzviy maydonga kirib kelgan juda ko'p asarlar yaratgan. Shekspir yaratgan asarlar jahon lirikasining buyuk namunalari qatoridan o'rin olgan. Ijodkorning shoh asarlari «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir» tragediyalaridir.

Matn yuzasidan savollar:

1. Shekspirning aktyorlik faoliyati qancha davom etgan?
2. Shekspirning qanday asarlari bor?
3. Shekspir yana qanday kasbda ijod qilgan?



1-mashq. Quyidagi gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'z yoki ko'chma ma'noda kelganligini aniqlab yozing.

Namuna: qanot – qushning qanoti (o'z ma'nosi); qanot – samolyotning qanoti (ko'chma ma'no).

1. Farida opa xontaxtaga yangi dasturxon yozdi. 2. Qani, mehmonlar, dasturxonga qaranglar. 3. Uning qora ko'zlari g'azabdan chaqnar edi. 4. Buloqning ko'zi yopilib qolibdi. 5. Men ellik birga chiqib, Beshyog'ochga bordim. 6. Qirq oltiga beshni qo'shsa, ellik bir bo'ladi. 7. Uyimizning shundoq ostonasi yonidan ariq oqib o'tar edi. 8. Gap shundaki, o'lim ostonasida vijdoni sergaklashadi. 9. Uch yoshga kirganda bulutga sakraydigan, tuyog'idan o't chaqnaydigan ot bo'ldi. 10. Jamoamiz fermada yildan yilga tuyoqlar sonini ko'paytirishga intilmoqda. 11. Tolibjonning ko'nglida uxlagan xotiralar uyg'onib ketdi. 12. Sobir kech uxlagan bo'lsa ham, sahar payti uyg'onib ketdi.

2-mashq. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'z birikmalari yordamida gaplar tuzing.

1. Stolning oyog'i. 2. Ariqning labi. 3. Ko'chaning boshi. 4. Kemaning tumshug'i. 5. Sovuq xabar. 6. Shirin so'z. 7. Achchiq haqiqat. 8. Qarzni uzmoq.



Bilib oling!

Ayrim so'zlarning o'z ma'nosi va ko'chma ma'nosi bo'ladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan, izohlanadigan ma'nosi **ko'chma ma'no** deyiladi.

So'zlarning o'z ma'nosida qo'llanishi	So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi
Ko'z – ko'rish a'zosi	uzukning ko'zi
Bosh – odamning tana a'zosi	ko'chaning boshi



2-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini izohlang.

Bir kuni shogird ustozidan so‘radi:

– Qanoat egasi kimdir, ustoz?

Ustoz javob berdi:

– Nasib etganiga shukur qilguvchi, bironing mol-mulkini ko‘rib ma’yus bo‘lmaydigan, tamadan yiroq insondir. Olamda qanoat kabi dilni poklaydigan narsa yo‘qdur. U kishining nazarini to‘q tutadi, tama, hasad, ochko‘zlik illatlaridan asraydi va oxir-oqibatda eng saodatmand, davlatmand kishilar safiga qo‘shadi.

Ustoz biroz sukut saqlab, so‘ngra yana davom etdi:

– Boylik mol-mulkning ko‘pligi degani emas, balki ko‘ngilning to‘qligidadir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qanoatli insonlar deganda kimlarni tushunasiz?
2. Ustoz boylik so‘ziga qanday izoh berdi?
3. Hasad, ochko‘zlik so‘zlarini izohlang.
4. Ko‘ngil to‘qligi deganda nimani tushunasiz?

Lug‘at

qanoat – довольствоваться малым

tama – корысть

illat – болезнь, зло

ko‘ngil – душа

poklamoq – чистить, очищать

oxir-oqibat – в завершении

saodatmand – счастливый

Uyga vazifa. O‘z ma‘nosi va ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarga 4 ta gap tuzing.

2-amaliy mashg'ulot

Davlat tili kompetensiyalarini CEFR deskriptorlari asosida aniqlash

Topshiriq orqali
rivojlantiriladigan til
ko'nikmalarini aniqlash

CEFR darajasini (A1, A2, B1 va
boshqalar) belgilash

Mos "Can do" (Qila oladi)
deskriptorlarini tanlash

Topshiriqni baholash mezonlarini ishlab
chiqish

Muhokama uchun savollar

1. Ushbu topshiriq qaysi CEFR darajasiga mos keladi? Mavzuda o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?
2. O'quvchi mazkur topshiriqni bajarish orqali qanday kompetensiyalarni namoyon etadi?
3. Baholash mezonlarini yana qanday takomillashtirish mumkin?
4. CEFR deskriptorlaridan dars rejalashtirishda qanday foydalanish mumkin?



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!